

Эргаш Али УМИРЗОҚОВ

АБАДИЯТ ҚЎШИҒИ



ТОШКЕНТ
«NISO POLIGRAF»
2013

УЎК: 821.512.133-1
КБК 84(5Ў)7
У-49

Эргаш Али УМИРЗОҚОВ

АБАДИЯТ ҚЎШИҒИ

Муҳаррир Т. Назаров
Техник муҳаррир Д. Салихова
Расм муҳаррири Ж. Гурова
Компьютерда саҳифаловчи Э. Ким

Оригинал-макет «NISO POLIGRAF» нашриётида тайёрланди.
100182, Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро кучаси, 51.
Лицензия рақами АИ № 236.11.02.2013.

Босишга 2013 йил 03 июлда рухсат этилди Бичими $84 \times 108 \frac{1}{32}$.
Офсет қоғози. «Palatino Linotype» гарнитураси. Кегли 12,5.
Шартли босма табағи 5,0. Нашр тобоғи 4,65. Адади 500 нусха. Буюртма №294.

«NISO POLIGRAF» ШК босмахонасида босилди.
100182, Тошкент ш., Ҳ. Бойқаро кучаси, 51.

Умирзоқов, Эргаш Али.
У-49 Абадият қўшиғи/ Э.А. Умирзоқов – Тошкент:
«Niso Poligraf», 2013. – 80 б

УЎК 821.512.133-1
КБК 84(5Ў)7

ISBN 978-9943-4047-5-5

© «NISO POLIGRAF», 2013

ОЛАМ ИЧРА ОДАМ ЎЗИ БИР ОЛАМ

ДЎСТЛАРИМГА

Оламдан кетмаслик учун бенишон,
Дўстларим шуҳрат деб беҳуда чопдим.
Зерикдим қийналдим лек топмадим шон,
Ҳаётнинг мазмунин сизлардан топдим.

Суянсам тоғимсиз юк ортсам норим,
Дўстларим шуҳратим сиз билан яккаш.
Кувончим, қайғумда ёнимда борим.
Мен келдим бир муддат бўлай деб дилкаш.

ЧОРИҚ ВА ЧАКМОН

Неча йиллар бирга яшадик иноқ,
Эй, йиртиқ чоригим эски чакмоним.
Сахий ва мард эдим гурбатдан йироқ,
Чўнтакда пайса йўқ, соғ эди жоним.

Барчага баробар, елкани тутиб,
Оғирин енгиллаб бораверардим.
Эртанги кунимдан умидлар кутиб,
Бир бурда нонимни бўлаверардим.

Бандадан бўлдимми ёки худодан,
Мартабам ошди-ю, давлат зиёда.

Амалдор бўлгандек худди азалдан,
Эл оралаб, юрмай қўйдим пиёда.

Қовоқлар осилди, шунга мос қорин,
Атрофимда барча гирди капалак.
Имо қилсам бўлди, тўкади борин,
Мен эса симу зар, тўпладим халак.

Ўйлабман, оламда бойлик ҳукмрон,
Жонимни эговлар ҳар лаҳза ганим.
Давлатим бўлмади соғлиққа қўрғон
Турфа хил дардлардан зорланар таним.

Фарзандлар бировга елкасин тутмас
Ҳолимни сўрамай, «бер» дерлар, афсус.
Уларга бошданоқ мол дунё эмас
Меҳр ва меҳнатни бермабман эссиз.

Чоригим, чакмоним мен сизга айтсам
Эғнимга киярдим кулса ҳам, гумроҳ
Хотиржам, соғ юрган кунларга қайтсам
Дунёнинг молидан кечар эдим, оҳ.

УСТОЗИМ

Кўз очиб дунёга келганим палла,
Бешигим устида хазин бир нола.
Сеҳри, гуллар очган кўнгил боғимда,
Мураббий аввали, онам ва алла.

Тилим чиқиб бийрон, чопиб юрган дам.
Илк бора, чуғурлаб саволлар берсам

Елкасига олиб, танитиб олам,
Катта йўлга қўйган, устозим отам.

Оддий Алифбодан то осмон қадар,
Бошимга илмни жо қилган, камтар.
Устоз муалимдан олганман, таълим,
Қанча таъзим қилсам камдек кўринар.

Билмаган нарсамни, ўргатди доим,
Ҳам ёшу, ҳам қари, деҳқон ва олим.
Умр йўлларимда нени англасам,
Англаган ҳар бири устоз муаллим.

Кўплардан ўрганиб, ўргатдим ўзим,
Кимга фойда берса, ҳунарим, сўзим.
Шогирдман дейолса гурурдан ўтиб,
Бош эгиб унга ҳам қиламан таъзим.

БЕРКИНМАЧОҚ

Айро тушиди, дил билан иймон,
Қийналиблар кетди-ку, бу жон.
Беркинмачоқ, болалик ўртоқ,
Кела қолгин қилмасдан муштоқ.
Тик боқолмай ҳатто кўзимга,
Беркинишга жой йўқ ўзимга.
Беркинмачоқ, болалик ўртоқ,
Мени яшир, ўзимдан шу чоқ.

ҚАБРИСТОНДА

Сукунат ҳукмрон ушбу маконда.
Бу ерда эсланар ўтган замонда,
Мунгайиб туради бунда қабрлар,
Тириклардан сўраб, дуо сабрлар.

Қачондир дунёга сизмаган не зот,
Ажалнинг қўлида мағлуб, ҳамда мот.
Сурган давраонларин қолдириб қайда,
Хоки тупрок бўлган, икки газ жойда.

Ечингиз, бу ерда гурур тўнини,
Сўнгги қўним шунда, ҳаёт қонуни.
Тупроққа ўтиринг, бўлиб хокисор,
Йиглаб ҳам олингиз, ҳеч ким қилмас ор.

Қотган дийдалар ҳам юмшайди бир оз,
Ғараздан, зулмдан дил бўлур халос.
Зора, шунда кетар кибру ҳаволар,
Қалбларга жо бўлур эзгу наволар.

Инсонни инсонга ҳурмати ошар,
Тирикнинг дийдорин кўрмоққа шошар.
Барҳам топар шунда кин-у адоват,
Эзгулик ахтарган топар ҳаловат.



ЎКИНЧ

Шаҳарга ўқиш деб келди-ю йигит,
Бадавлат бевага уйланиб олди.
Тугилган қишлоқ ҳам бўлди-ю унут,
Молу давлатига боғланиб қолди.

Эсига келмади қавму қариндош,
Йиллар шу зайлда ўтди-ю кетди.
Йўлига термулиб, кўзларида ёш
Она ҳам интиқиб дунёдан ўтди.

Ор қилди, онани келмади кўмиб,
Дўст топмай, фарзандсиз умр ўтказди.
Яшади айшини жойига қўйиб,
Хаста бўлгач хотин уйдан кетказди.

Шу кундан ортига кетди-ю иши,
Сўнгсиз изтиробда бошин қашлади.
Бегубор болалик ёдига тушиб.
Оёғи қишлоғи томон бошлади.

«Ким қолди, қандайин кутаркан ахир!
Бирор қариндошни кўрмаганди тенг.
Ҳайдаб солмасми деб хадик ҳавотир,
Қишлоқ одамларин кўнгиллари кенг.

Кел деди, ҳайдамай бағрига босиб.
Амаки, тоғаси қилдилар меҳмон.
Бир лаган ялпизли сомсага қўшиб
Сумалакдан татиб кўргани замон.

Инсоний қадрини топгандек бўлиб,
Аччиқ ҳақиқатни англади шу он.
Умри саробларда ўтганин билиб
Бўғзига дард келиб, йиғлади чунон.

ҲАСАД

Амалда силжисам, ҳамкасбим бўлиб,
Ғижиниб, тагимга сувлар қуясан.
Янги улов олсам, дўстга айланиб
Айри тиллар билан гийбат қиласан.

Тилла олиб берсам, гар хотинимга,
Янга бўлиб акам, укам қайрайсан.
Бирор ҳашаматли иморат солсам,
Қўшимга айланиб, чақиб яйрайсан.

Сендан қутулишга йўқ бирор илож,
Инсоннинг қонига сингиб битгансан
Омаднинг қўшниси, оҳ, разил, ҳасад.
Не не азиз бошни, узиб кетгансан.

Неча бор кўксимни чангаллаб қолиб,
Дастингдан тортсам ҳам кўп марта озор.
Сен борсан, қилмишим фикрлаб олиб,
Ўзлгимни англаб тураман хушёр.



УМР ЗАВОЛИ

Қаршингда шишада турар жилвагар.
Тиниқ сув, гўёки поклик тимсоли.
Ич дейди, ўзига чорлаб хийлагар
Неча тақдирларнинг бўлган заволи.

Бир қултум ичсанг гар, бошқасан, қара
Ортидан яна ҳам, ичгинг келади,
Сўнг эса барчага бўлиб масхара
Муштлишиб, лойларга кечгинг келади.

Эртаси кўчага чиқмоқ уят, ор,
Барча қилгиликни ағдариб унга.
Минг бора тавбалар қиласан такрор,
Лаънатлар ўқийсан «у» чиққан кунга.

Сал ўтиб қаршингда туради, шиша,
Тавба таззарулар ортда қолади.
Ютоқиб ичасан топиб ҳамииша,
Шайтон ўтдан олиб, ўтга солади.

Дўстлар юз ўгирган, араздадир ёр,
Болалар кўчада эшитар таҳқир.
Ақлинг суяниб фикр қил ҳушёр,
Умринг ёнгинангдан ўтмоқда ахир.



ТАРОЗИ

*Шоҳда-ю гадода, барчада борсан,
Кимгадир гаразлик, кимгадир орсан.
Шунчалар қудратли кучдирсан наҳот,
Дастингдан дод деди не-не одамзот.*

*Сулаймон қўлида қилдинг адолат,
Чингизнинг қўлида бўлдинг жаҳолат.
Худого арз қилди дастингдан Хайём,
Созлашга уринди, Мир Алишер ҳам.*

*Этак билан ёпиб бўлмас қилмишинг,
Озни кўп, кўпни оз қилиб туришинг.
Сенга кор қилмасдан бирор насиҳат,
Сенда синиб кетди қанча ҳақиқат.*

*Ўлчаиш керак дерлар бўлгунча рози,
Не учун бунчалар бузуқ тарози.
Сабаби аёндир, ишин асослаб,
Ҳар ким ясаб олур ўзига мослаб.*

*Арзимас наф учун йўқотар иймон.
Кўнгил тарозуси бузилган инсон.
Юрт обод, халқ озод бўлади бешак,
Адолат йўлида посанги бўлсак.*



ИБРАТ

Офтобда исиниб олгани бир оз,
Ковагидан чиқди, ҳовлига илон.
Уйида душманни кўргандек беҳос,
Ғазабга тўлишиб чопди у томон,
Отада белкурак, ўғлида кетмон.

Йўл -йўлакай берар, ота ақллар,
«Тушда кўрсанг дейдилар бу ганж.
Доно халқдан қолган нақллар,
Ушда кўрсанг ур, бошини янч,
Одамларга келтирмасин, ранж».

Шаҳд ила қасд қилиб уни жонига,
Кўзига қон тўлиб. ура бошлади.
Оқибат гарқ этиб қора қонига,
Бурда бурда қилиб, сочиб ташлади.
Бу ҳам унга кам деб, ёқиб ташлади.

Келмаган омад-у, тўлмаган рўзгор,
Кимгадир тугилган муштлари учун.
Фурсат етганидан бўлиб бахтиёр,
Душманга қанчалар кўрсатиб кучин,
Исодан олишиди Мусонинг ўчин.

Олам тўфонида қочиб мавжудот,
Йигилган чоғида жуфтини топиб.
Нуҳнинг кемасида топганда нажот,
Каламуш гажиган тешикни ёпиб,
Қутқариб қолганди, ўзини отиб.

«Қайси маҳлуқотни қилай мукофат,
Танла» деб сўраган, Нух ўша замон.
«Менга маъқул деди, фақат одамзод».
Қалдирғоч тилини чўқигани он,
Душман тимсолига айланди илон.

Қиссадан ҳисса шу, яхшиликни қил,
Дарёга солгину, бўлма таъмагир.
Нафсинг аралашса эзгуликмас, бил,
Яхшилик кўрган ҳам, бўлар дамонгир
Илоннинг қисмати, бизга ибратдир

ШАЙТОН ВА ШОГИРД

Фақат инсондадир топқир заковат,
Йўлдан уриб турар шайтоний овоз.
Мозийдан келади қадим ривоят,
Бир куни шогирдин синади устоз.

«Тўрт тухум қолдирдим, сенга эй бўтам
Билсанг гар, бизларга, бу кечки таом.
Қайтиб келгунимча сабр қил бир дам
Сўнгра биргаликда кўрамиз баҳам».

Бола-да, шогирднинг қорни очқади..
Бир дона тухумни тутди у шамга.
Бошқача пишириш йўлин топмади,
Чала пишди, еди, ўхшади камга.

Бор-е, деб қўл силтаб борини шу он,
Шамни шуъласида пишириб еди.
Устоз қайтса тухумлардан йўқ нишон,
«Эй бўтам, бу не иш, қилганинг деди».

«Оч қолиб бўлганди кўнглим беҳузур,
Шайтон йўлдан урди қилмадим тоқат.
Қилган ишим учун минг бора узр,
Барига сабабчи шайтон касофат».

Ёқа ушлаб, бурчакдан чиқди-ю шайтон,
Деди, инсонларга кўп қилдим зуғум.
Эй инсон, шогирдинг гапирди ёлгон
Энди кўрдим шамда пишганин тухум.

АЁЛ ЗОТИ

Хабар келтирдилар аёлга мудҳиш,
Боласи анҳорга чўкиб ўлганмиш.
Онанинг фарёди кўкларга етди.
Дод солиб югуриб анҳорга кетди.

Ўглини излашар тумонат одам,
Кўйлаги шу ерда, ана, дўппи ҳам.
Аёл нола қилар, «менгина ўлай,
Сенсиз бу ҳаётни, энди не қилай».

Шу дамда, майкачан, дўпписиз хандон,
У келди даладан қиргоққа томон.
«Синаш учун хабар бергандим, она,
Мен чўкмадим сувда, шундаман мана».

Ғазабга келтириб бола қилмиши,
Ўглин ура кетди, тинмай қарғиши.
«Мени шунча ўтда куйдирдинг эй гўл.
Бундан кўра чўкиб- чўкибгина ўл».

*Кўриб хайрон қолдим фалак ишини,
Она, силамади бола бошини.
Хурсанд бўлмай, минди жаҳл отига,
Тушуниб бўлмади, аёл зотига.*

ҚИЗИМ МОҲИНУРГА

*Сахий куз ўзини кўз –кўзлаган дам,
Анвойи рангларга чўмилган олам.
Бугун, гурурим ҳам қувончга ҳамдам,
Шодликдан кўзимга келаверар нам.*

*Қизим, кўзларингда порлар табассум,
Келинлик либоси ярашмиш бирам.
Нилуфар гулидек покиза маъсум,
Бахтингни кулгани рост бўлсин болам.*

*Атиргул баргидан ёзиб поёндоз
Қайнона қайнотанг очмоқда бағрин
Бахтиннг олқишига жўр бўлади соз,
Ёнингда мард ўғлон, бахш этган қалбин.*

*Борган даргоҳингда томирлар отиб,
Муродингга етгин қизгинам эркам.
Алла айт тунлари бешик тебратиб
Бахтингни бутласин ширин неварам*



НЕВАРАМГА

Бобо деб чопқиллар жажжи болажон,
Мағизи ширин дер мевасидан ҳам.
Ўғилга чимрилган қошлар ҳам ҳайрон,
Табассум ёйилар уни кўрган дам.

У ерда ширинлик бўлар деб ҳар он,
Чўнтакни титкилар бўлиб бир олам.
Тилин чучуклиги ўзи бир достон,
Ўзига, яратиар аразлаган дам.

Кўзимнинг қароғи, тиллари бийрон,
Сен. Ватан тирағи жоним неварам.
Ўсиб унгин бўлгин мард ўғлон,
Бобонгни дуоси ҳамроҳинг ҳар дам.

ҚИЗЛАРИМ

Ҳар бирингиз кўзим қароғи,
Сизга бўлган меҳрим бир олам.
Сизсиз ёнмас қалбим чироғи,
Чеҳрангизда, сийрати онам

Чугурчуглаб, ўпиб эркалаб,
Ачом ачом қилган юзларим.
Йўрғагидан, бағримда ўйнаб,
Бўйга етиб қолган қизларим.

Гулларимсиз, ҳаёт боғимда
Кўз қароғда ўстирган азиз.
Бугун эса, учирма бўлиб,
Ўзга уйда макон қургансиз.

*Келмай кет дер, болам сен уйли,
Тўйдирмасдан туриб меҳрига.
Онангиз ҳам сизлардек мунгли,
Қолманг дейди ота қаҳрига.*

*Қизга ота бўлмоқлик огир,
Юрак тўла бўлса ҳам меҳр,
Ноиложман, тергайман ахир,
Ёлгондакам, қиламан қаҳр.*

*Кўзим қувнар кўриб бахтингиз,
Ғамларингиз бошимдаги қор.
Доим баланд бўлсин тахтингиз,
Дуо қилгум сизларни минг бор.*

ФЕРМЕР УКАМ САЙДИРАҲИМГА

*Ота касбин қилса хор бўлмас инсон,
Сен деҳқон ўғлисан, томирингда бор.
Далада туғилдинг бешигинг шийпон,
Беланчак бўлганди, арқонли қанор,
Кўз очиб кўрганинг бўлган пахтазор.*

*Бу ҳур замонгача нени кўрмадинг,
Ҳали қиш тугамай бошланган заҳмат.
Пахтага қул бўлиб, роса терладинг,
Меҳнатга яраша айтмасдан раҳмат,
Косангни оқартмай қилишди туҳмат.*

*Бугун сен фермерсан ерни эгаси,
Мустақил Ватанда сенга зўр ишонч.*

Ҳар қанча ишласанг порлоқ эртаси,
Сен ризқни сочасан, давлатга таянч,
Меҳнатинг ўзингга келтирар қувонч.

Хурсандман бугдойга тўлибди уйинг,
Пахтангдан рўзгорга барака тўлсин.
Бир пайтлар отга ҳам етмасди пулинг.
Олган уловларинг, ўнтага етсин.,
Янги уй қурибсан, муборак бўлсин.

ЯНГИ ЙИЛ

Дераза қировдан, нақшинкор безак,
Янги йил, мўъжиза тилаксан бешиак.
Келасан ҳар йили умид етаклаб,
Оламни беғубор оқлика белаб.

Дастурхон безайди ҳар бир хонадон,
Яхши ният қилар келар деб меҳмон.
Байрамлар ичида гашти бўлакча,
Ўйларнинг турида, гўзаллик арча.

Дунёда йўқлигин билсак ҳам аниқ,
Боладек Қорбобо кутамиз интиқ.
Совга саломлар-у, ажиб эртаклар,
Болалик домига мудом етаклар.

Ҳайратга солади чархнинг бу иши,
Бир йилга камайди умрнинг қиши.
Орзуларга Ҳамроз, яшаб ўтамиз,
Соғиниб барибир сени кутамиз.

Эзгу тилакларсиз умр ўтмайди.
Сўнги нафасгача умид кетмайди

ТҮРТЛИКЛАР

*Дерларки қорани қилиб бўлмас оқ,
Бўлса ҳам бу, инсон қўлидан келмас.
Кора сөч ва соқол тақдирига боқ,
Оллоҳни қудрати, оқарган мутлоқ.*

* * *

*Бешикдан тушгандан то қабр қадар,
Илм изламоқлик мўминга фарздир.
Умр йўлларида қўйган ҳар қадам,
Сенга ўргатганлар олдида қарздир.*

* * *

*Фалак айланади менинг теграмда,
Оламни маркази мен турган жойда.
Ким исбот қилади аксини айтинг,
Аниқ ўлчаш учун чегара қайда.*

* * *

*Кеча қилган эдим мушкулнинг осон,
Ғийбатлар қилибсан, қилмасдан дуо.
Сени қилмишингни билар оломон,
Мени кимлигим ҳам, барчага аён.*

* * *

*Дўст бўлсанг исбот қил, севсанг исбот қил,
Исбот талаб қилиб сайрайверар тил.
Садоқат вафога асос ишончдур,
Ғар ишонч бўлмаса исботлар бир пул.*



БИР КУНИ СҮРОҒИГА ЧОРЛАЙДИ РАҲМОН

ОТА ВА ЎҒИЛЛАР

Фарзандлар отани келдилар кўмиб,
Бир саф тизилдилар эшикда қатор
Ота ўтиб кетди қутулди ўлиб
Неча балоларга бўлган гирифтор

Юрса қадамидан гурсиларди ер,
Ортидан эргашиб юрарди офтоб.
Бир умр ишлади тўкиб қайноқ тер,
Ўғлим орим дерди, келиним моҳтоб.

Ногоҳ ётиб қолди сўнгги уч ойда
Ўғиллар югурди бўлди қаратган.
Бирор бир табибдан бўлмагач фойда
Хукмига ташлади, сўнггра яратган.

Катта ўғилларнинг уйлари бўлак
Келибоқ кетишар узрини айтиб.
Ота дийдорга зор, ҳувиллар юрак,
Шу билан ҳафталаб кўринмас қайтиб.

Емакдан қийналди касалманд чоғда
Туришга мадор йўқ, сўзлагани тил.
Кўзлари йўлда ю, қўли дуода!
«Раббим, болаларим ризқини бут қил».

Ота ўтиб кетди, фарзандлар қатор,
Келганларга бир бир елка туттишар.
Меҳмонлар ҳурмати тик туриб бедор
Бирини кузатиб, бирин кутишар.

Шу зайл бир ҳафта ўтди, ҳеч кимни,
Безовта қилмади «турмуш ташвиши»
Йўқотиб дунёда тенги йўқ зотни.
Тўхтаб ҳам қолмади дунёнинг иши.

Мақтаниб қўйишар ора чорада
«Ортимдан келмоқда казо казолар
Кўрдингми обрўйим баланд нақадар,
«Мен» дейди, «у» дейди ва ҳакозолар.

Эҳ, нодон ўғиллар, бу кибр қайдан?
Отангиз бақога кетди дил доғлаб,
Ўтганни ёд этиб келмаса одам,
Турмас ҳам эдингиз, балки бел боғлаб.

УМР

Неча куни қолди фалон аканинг,
Бориб хабар олиб кекса ҳолидан.
Йўқлаб келар эди бир зотни отам,
Отамдан кейин ҳам, яшади зотан

Ўлаб берилгандир инсоннинг умри
Унга қўшолмаймиз бирор сония.
Бугун кўрганимиз эртасига йўқ
Дунёдан кетишга бордир баҳона

*Соппа сог юрганди, йиқилди кимдир
Ердами, сувдами, тақдири азал.
Бевақт олиб кетди, деймиз-у, аммо
Ким айтар, вақтида келди, деб ажал.*

*Бугун атрофингда ёринг дўстларинг
Сени ҳам, кутмоқда тўрт оёқли от
Эртага кетар кун ёдингда бўлсин
Эзгу амалингда топгайсан нажот.*

ФАЛСАФА

*Кутмаган бахтингда бўлиб сен шодон,
Шодлигинга тўлса, жумла-ю жаҳон.
Босган изларингда гуллар очилса,
Юракдан қувончлар тошиб кетган он.*

*Қувонч-у шодликка шерик қилсанг гар,
Дўсту яқинларинг табрикка келар.
Шодлигинг кўпайиб учар самога,
Қоматинг тикланиб тоғларга етар.*

*Ғамнинг булутидан кўзларингда нам,
Букилиб кичрайиб, кетди гавданг ҳам.
Келган мусибатга йўқдек ниҳоя,
Кўзларингга андуҳ тўлиб кетган дам.*

*Дўстлар ҳамдард бўлиб, бўлинса дардлар,
Ҳар битта таскиндан тукилиб ғамлар.
Энг оғир қайғу ҳам чекинар ортга,
Ва, қайтиб келади бахтиёр дамлар.*

Шодлик ҳам андуҳ ҳам юрар ёнма ён,
Ҳамроҳдир тугилган чоғидан инсон.
Қўплашиб ғамларни кўтариш мўмкин,
Барча мусибатдан, ёлғизлик ёмон.

КЎЗГУ

Бориб нафсинг домига, алдадинг чунон,
Ака, ука, дўстни, унсин деб товлон.
Сўнг қилган ишларинг ошкора бўлиб,
Уларга қарашга қийналди виждон.

Маст бўлиб оғзингдан сўз чиқди беор,
Қанчалар дилларга етказдинг озор.
Эртаси болангга тик боқолмадинг,
Бир четга сурилди номус ила ор.

Кўнгул кўчасида топилиб ишрат,
Баъзан қилганингда жуфтга хиёнат.
Аёлинг алдадинг, тўқиб, ривоят,
Мунгайиб овлоқдан боқди диёнат.

Мард бўлса душман ҳам ҳурматга лойиқ,
Ортидан мушт урдинг, билмас деб Холиқ.
Иймонинг чекиниб кетди узлатга,
Барча қилмишингни билди халойиқ.

Ҳозирча бегона сенга ҳақиқат,
Қазо етар бир кун, келар охират.
Айтчи, одамларга тик боқолмасанг,
Хаққа нима дейсан етганда фурсат.

Айро тушмай туриб дилингдан иймон,
Тилинг ҳам, дилинг ҳам, турсин бир томон.
Кўзларинг яширмай рўбарў келгин,
Бир кун сўрогига чорласа Раҳмон.

УРУШНИНГ ЭНГ СЎНГГИ АСОРАТИ

Уруш асорати битмабди ҳали,
Дуогўй оталар сафлари сийрак.
Улар қаршисида ўйга толаман,
Тинчликнинг қадрига етмоқлик керак.

Қирқинчи йилларда эркаклар бари,
Мудҳиш жангоҳларга қараб кетишди.
Ортидан кўз тикиб неча сулувлар,
Гулдай ёшликларин хазон этишди.

Қанча келинчаклар «қора хат» олиб,
Тулларга айланиб қолдилар ожиз.
Неча гўзал қизлар топмай жуфтини,
Бахтлари очилмай ўтдилар ёлғиз.

Қанча норасида тугилмай асти,
Ўғлонлар белида ўқларга учди.
Сонсиз мушфиқ она урушни қаргаб,
Фарзандсиз не уйлар чирोगи ўчди.

Омон қолганидан бўлган фарзандлар,
Қариди, олтмишга, етмишга етди.
Лаънатлар бўлсин шу, уруш дастидан,
Маҳаллада чоллар камайиб кетди.

КИМГА ТҮЙ, КИМГА АЗА

Кузак шамолидан, япроқлар учар,
Қиш қаттиқ келишдан, бериб бир нишон.
Дарахтлар тепадан, баргларин тўкар,
Ҳам узоқ, ҳам совуқ, бўлар қаҳратон.

Бу ҳолдан ўтинчи хурсанд ниҳоят,
Энди чаққон бўлар ўтин бозори.
Бу қишдан бой бўлиб чиқади зоят,
Тўй қилар, худога етибди зори.

Бунни кўриб, чуқур қайғуда чўпон,
Бу йили қирларда бўлмади хашиак.
Кўйларин ярми ҳам қолмайди омон,
Қизга тўй қилишда қийналар бешиак.

Барчага бирдайдир аслида дунё,
Ҳамма билганича, кунин кўради.
Бир ҳолдан, кимгадир яхшилик ато,
Кимгадир бир олам қайғу келади.

Сув келса симириб, кемирамиз тош,
Бу чалкаш оламда яшамоқ тақдир.
Тегирмон тошига етгунича бош,
Доимо кимга тўй, кимга азадир.

МАНГУ БАРҲАЁТЛИК ДАЪВО ҚИЛАР РУҲ

АБАДИЯТ ҚЎШИҒИ

*Хатто, вақт ҳукмига бўйин бермаган,
Номоддий оламлар борин, биламан.
Руҳимда бўлсин деб, кўникма ҳосил,
Уни тушларимда кўриб тураман.*

*Мен чексиз ҳаётман борлиқ оламда,
Фақат, ўлчамлардан ўтиб қоламан.
Ушбу ер аталмиш моддий дунёдан,
Бошқа оламларга кетиб қоламан*

*Жисмни қолдириб учта ўлчамга,
Руҳим руё бўлиб учар осмонга.
Жаннат ва жаҳаннам нелигин кўриб,
Нур бўлиб кетаман бошқа томонга.*

*Бешинчи ўлчамда не сир синоат,
Хатто тўртинчидан йўқ бирор хабар,
Ва лекин биламиз уларнинг сони,
Ўн саккизта мингда собит барқарор.*

*Мангу барҳаётлик даъво қилар руҳ,
Мен кезиб юраман, оламлар аро.
Неча бор йўқ бўлиб, пайдо бўлар ер,
Баридан бир ўтиб қайтгунимча то.*

ЧАРХИ ФАЛАК

Оптоқ тилакларни қалбга жо қилиб,
Тогларга қор бўлиб ўзимни сочдим.
Қуёшнинг тафтидан олиб ҳарорат,
Булоқдек жилдираб йўлимни очдим.

Майса гуллар каби мусаффо қалбим,
Жилгадек томчидан маржонлар тақди.
Сўнг эса югурдим суронлар солиб,
Вужудда хайқирган дарёлар оқди.

Қай дилни яшнатдим, қай бирин буздим,
Бебош туйгулар ҳам ташлади кетди.
Кимдандир орқада, бировдан ўздим,
Ва сочлар оқариб уммонга элтиди.

Бугун уммонларда туришим сокин,
Ҳар замон шуурда тугилар тўфон.
Бир куни қор бўлиб тушгани секин,
Нур бўлиб кетаман осмонга томон.



ЯРАТГАНГА ИЙМОН

Машхур олим Жак Ив Кусто денгиз билан уммони ажратиб қўйилганлигини узоқ тадқиқ қилганидан сўнг бу ҳақда қуръонда очиқ сўзлар билан ёзилганини ўқиб иймон келтирди ва мусулмон динини қабул қилди.

*Бизлардан олдин ҳам тугал бор эди,
Ғойибдан яралган мукаммал олам,
Ва биздан кейин ҳам бўлади бешак,
Наҳот кўрмаяпсан эй ожиз одам.*

*Кўкрагинга уриб яратдим дейсан,
Йўқдан бор қилишлик яратганга хос,
Кашифийёт, ихтиро ва қонуниятлар
Бор эди сал олдин кўролдинг холос.*

*Тогларни қозикдек ерларга қоқиб,
Юлдузлар-ла кўкни безаб қўйган зот,
Уммонни денгиздан ажратиб қўйиб
Кустони иймонга келтирди ҳайҳот.*

*Ундандир борлиқни тадриж камоли,
Ўзидир ягона энг буюк кашишоф.
Токи кибринг бўлмай умринг заволи
Эй инсон сен ҳақни қилгил эътироф!*



МИСТИКА

*Ой тўлган тунларда, арвоҳлар изгир,
Жинлар базм қилади, доира чалиб.
Хатто денгизлар ҳам жунбушга келур,
Одамлар тентирар адашиб қолиб.*

*Кўзларга кўринган ажина, арвоҳ,
Жонсиз танасини мангу тарк этган,
Изн бермагунча Қодири Оллоҳ,
Руҳдир, бошқа таналарни ахтариб кетган.*

*Аллоҳ синов берар дейишар асли,
Руҳлар учун балки бу бир синоат,
Заминга жон бўлиб қайтиб туриши.
Яратган амрига қилиб итоат.*

*Руҳи бор яшайди тирик жонзодда.
Инсонда ҳайвонда набототда бор.
Руҳимиз бўлгандир китда ё отда.
Ва ёки дарахтда, гулда беозор.*

*Сабабин қидирдим, аниқ билмадим,
Онгимни қоплайди мавҳум ҳаёллар,
Ой тўлган тунларда, қирларга чиқиб,
Мени, Бўри бўлиб, увлагим келар.*



ИНСОН ВА ФАРИШТА

*Битта вужуддидир, фаришта, шайтон,
Эзгулик, ёвузлик томон бўлинар.
Шулардан тугилар савоб ва ситам,
Юз йиллик умри ҳам бир дам кўринар*

*Фаришта шайтонга бақо муштарак,
Ўлим бор мавжудот, инсонларга хос
Кўпроқ яшасак деб жонимиз ҳалак,
Умид ва қўрқувлар шу орзуга мос.*

*Аслида яшаининг қизиги шунда,
Инсонни умрига фаришта хавас.
Ногоҳ узилиш бор кутмаган жойда,
Лутфи ҳам, жабри ҳам, кетади бесас.*

АБАДИЙЛИК ВА ЧЕКСИЗЛИК

*Оламни чексиз дер. Чексиз оламда.
Миллардлаб жисмлар ўрин талашар.
Мени жисмим аро тирик жонзотлар,
Менга чексизликни даъво қилишар.*

*Оллоҳни қудрати, инсон танида,
Милиардлаб жон яшар, кўрмай фидоман.
Жисмимда жўш урган бу ҳаёт учун,
Қайсидир маънода мен ҳам худоман.*

*Миллион йил наридан назар солсанг ҳам,
Шу замон, шу макон, шу вақтда борман.
Миллион йил беридан қараб қўйсанг ҳам,
Кўрасан, ҳамиша вақтда такрорман.*

ДУНЁДА БОРИДАН, ДИЛИМ ХОТИРЖАМ

АЙРИЛИҚ

Яна олисдасан, севикли сирдош,
Хижронларга солиб кетишинг ёмон.
Қайтиб келишингга бўлса ҳам ишонч,
Хадик хавотирлар қалбга ҳукмрон.

Юракда йиғилиб келаверар дард,
Озгина эрк берсанг, кўтариб тўфон.
Сен эса узоқда ягона ҳамдард,
Шунчалар боғланиб қоларми бу жон.

Ёнингда билдирмай чопган лаҳза вақт,
Иммиллаб қолади сендан йироқда.
Еттинчи осмонга чиқиб кетган бахт,
Маюс ерга тушар, ўксиб фироқда.

Висолга эгизак айрилиқ мудом,
Кун тун-ла, алмашиб турмаса бекор.
Дийдорнинг қадрига етмас эдик ҳам,
Фироқда дунё ҳам кўринмаса тор.



ИЛОҲИЙ ТУЙҒУ

Дилларга оромлар бергувчи оҳанг,
Нафис бир жилолар бунда мужассам.
Дил нозик торлари бўлиб ҳамоҳонг,
Шу куйнинг бағрига сингиб кетолсам.

Севги куйи бўлса юракка ҳамдам.
Армон, хижронларга тўла бўлса ҳам,
Фазога учолсам шу оғанг билан,
Илоҳий муҳаббат, қалбга кирган дам.

Кимдир севишини, хис қилсам ҳар дам,
Кимнидир соғиниб, севиб яшасам.
Васлига, етишсам, етишмасам ҳам,
Дунёда боридан, дилим хотиржам.

АРМОН

Дилим шишасига тегди-ю хижрон,
Чил чил бўлиб синиб тушди ўша он.
Бу хижроннинг охирида висол йўқ,
Ортига қайтолмас чиқиб кетган ўқ.

Мен сени соғиндим, о буюк армон,
Малаксан, мен учун қўл этмас осмон.
Сузиб кетаяпсан парқут самода,
Ҳаёлинг тарк этмас, умид хумода.

Ичимдан нимадир узилган. Боис,
Кувончлар тарк этган кўзларим маюс,
Ишқнинг, қўшиқлари энди садосиз,
Дунёлар маъносиз, ранглар жилосиз,

Оташ қучогингда сеҳр бор эди,
Хумор кўзларингда меҳр бор эди.
Мен сени севгандим, юракдан дилдор,
Сенинг видоингда ўзим гуноҳкор.

АРОСАТ

Менинг куйганимга дунёлар ёнди,
На сас бўлди сендан ва на бир садо.
Хижрон азобида дил фарёдланди,
Парво ҳам қилмадинг, бўлсамда адо.

Сен кетдинг, боғимда ҳазонлар тўзгир,
Айрилиқ изгирин, қароғим қиров.
Музлаган қалбимда, бўронлар изгир,
Йўқликдан борлиқни қилаберар ов.

Гар келсанг қалбимда гуллар очилиб,
Муз эриб, кўзимда яшнарди баҳор,
Ҳар битта гунчадан бўса сочилиб,
Лабимга босардим, васлинг деб такрор.

Сен кетдинг, юракда чинқирар хижрон,
Сўнгги умиддан ҳам қилма деб жудо.
Мавҳумлик қийнайди, аросат ёмон,
Бирор хабар бер деб, қилдим илтижо.



ДОКА РЎМОЛ ҚУРИШИ

Алам билан чиқиб кетди ёр,
Қайтмайман деб такрор ва такрор.
Мен ортидан жеркиб, чақирдим,
Айбин айтиб унга бақирдим.

Ич ичимдан қайтишин кутдим,
Ғурур устун қайт дейолмадим.
Ўзга келгач ўйланиб қолдим,
Сўнг бош эгиб уйига бордим.

Онасини ортидан менга,
Тил чиқарди «ол мана сенга».
Алам кетиб у ҳам согинган,
Эркаланди, менга талпинган.

Кўпни кўрган доно қайнона
Етаклатди қизини мана.
Ёлгондакам қавогин уйиб,
Ёр боради ўйларга толиб.

Англаб етиб дунёнинг камин,
Араздан сўнг висолнинг таъмин,
Меҳрларга кўмиб ташладим,
Ва янгитдан сева бошладим.



БОЙЧЕЧАК

Қирлар қордан бўлмасдан жудо,
Киш заптини бўшатмай ҳали.
Қор устида мўъжиза пайдо,
Чечак чиқди қуёш кўргали.

Дарак бериб келди деб баҳор,
Омон омон чиқди бойчечак.
Интиқ диллар жилмайди илк бор,
У гул эмас, умиддир бешак.

НИЛУФАР

Сув юзида нафис бир чечак,
Юз очибди гўзал мафтункор.
Барг устидан жилмаяр маъсум,
Орзулардек тиниқ безубор.
Боқишлари мунча ҳам сирли,
Завқ беради дилга бир олам.
Гўё кулар ажиб сеҳрли
Интилганим суюкли санам.



ОРЗУГА АЙБ ЙЎҚ

Ногоҳ учрар сарв қомат жонон,
Нигоҳида юлдуз чақнайди.
Хотинига таққослар шу он.
«Шундай аёл менда бўлсайди».

Бир ҳурлиқо сўзлади аста,
Тилларида асал қайнайди.
Ҳавас билан боқди оҳиста,
«Оҳ, хотиним шундай бўлсайди»

Уйга келса шангиллар хотин,
Мен едимиз сиз қолиб қуруқ,
Қовоқ очмай келасиз қайдан.
Сиз бошқани топгансиз аниқ».

Эрга бўлмас жавоб муаммо,
«Не ўйлайсан хотин, билмадим.
Не жононлар кўрсамда, аммо,
Фақат, фақат сени ўйладим».

СОҒИНЧ

Мен сени соғиндим, қадамингга зор,
Кўзларим қорайди тунларим мисол.
Қарогим ёпилмас, юрагим бедор,
Кўксинга бош қўяй, кел дардимни ол.

Телбалик ақлимдан айлабон жудо,
Зулумот қаърида адашдим узоқ.
Келмасанг ҳаётим нурсиз бенаво,
Турибман тубсизлик сарҳадида тоқ.

Азизам мен сенсиз қийналиб кетдим,
Кел энди, келақол ситамлар нечун.
Тиз чўкиб йўлингга, ол, дея тутдим,
Садқа бўлсин бир жон, бир висол учун.

ОҚҚУШ СЕВГИСИ

Икки жуфт бир бирин севганди чунон,
Муҳаббат осмону ҳислар ҳукмрон.
Фазоларга учар чарх уриб шодон,
Сувда ҳам кўкда ҳам доим ёнма ён.
Вафо садоқатдан куйланди қўшиқ,
Ҳавасла қаради ҳар қандай ошиқ.
Қайдандир дайди ўқ келди ногоҳон,
Нар қуш қулаб тушди оҳ уриб нолон.
Модани додини тингламас ҳеч ким,
Севгисиз бир сайёд тушунмас балким.
Унинг чун севги бу, ўткинчи бир ҳис,
Бир йиглаб, эсидан чиқарар изсиз.
Илоҳдан келади асл муҳаббат,
Ёр учун жон берар ўтказмай фурсат.
Шўр гавғолар тушиб мода бошига,
Базўр етиб ўлган ёри қошига.
Сенсиз ҳаёт йўқ деб йиглади чунон,
Азобдан ингради ер ҳамда осмон.
Йўл кўрсат деб нола қилиб худога,
Рухлари учгандек бўлди самога.
Кўкдан термулганча ёрга сўнгги бор,
Ёрга отди ўзин, дод солиб зор зор.
Уларнинг жасади ўлжага қолди,
Озод бўлган руҳлар кўкка йўл олди.

Бу руҳлар олами билмайди сарҳад,
Абадий висолда бунда муҳаббат.

КАККУ

Во-ажабо, ҳайрат билан ёқа ушлаб,
Какку қушининг қилигига, бўлдик ҳайрон.
Билдирмасдан тухум қўйиб ўзга инга,
Инда турган қушчаларни этди вайрон.

Какку бир қуш, у шундайин яратилган
Ўрнак бўлмас қилиқлари синглим ишон.
Номусингни ерга уриб, тинч оилани,
Бузиб юрма, сен қуш эмас, ахир инсон

Муқаддас деб бошга қўйдик аёлларни,
Она дедик сингил дедик, гўзал жонон.
Жаннатни ҳам пойингизга етакладик.
Бу ҳолатни кўриш бизга эмас осон.

Енгил елпи ҳаёт зумда ўтар кетар,
Ёш ўтганда тавқи лаънат қўймас омон.
Алла айтинг бола қучиб бешикларда,
Бир рўзгорни обод қилинг садқа-и жон.

НАВРЎЗ

Зулматда, узоқроқ беркинган қуёш,
Кўкида анчайин жилмайиб қолди.
Тунини кун билан айлабон тенгдош,
Осмон ҳам бир қадар кенгайиб қолди.

Қишининг рутубатли совуқларидан,
Қутулган кекса ёш кўриб ялпизни,
Кўзларига сураб, дейишар шодон,
«Шукр шу кунларга етказдинг бизни».

Ёш яланг юзида, табассум чақнар,
Гул чирой кашф этар лола ёноқлар
Сумалак солинган қозонин кавлар
Шўх лапар айтишиб ҳуру малаклар

Тирик жон куй чалиб, жуфтини чорлар,
Кушлар севги рақсин бошлаган бу дам
Ер тафтидан эриб қорлар қировлар,
Даласидан ризқин излар деҳқон ҳам.

Далалар ям яшил, ниятлар оппоқ,
Мўл бўлсин юртимда насиба ризқ рўз
Бодомлар шохида гуллардан бодроқ,
Қадамларинг қутлуг, хуш келдинг Наврўз.



ABADIYAT QO‘SHIG‘I



OLAM ICHRA ODAM O'ZI BIR OLAM

DO'STLARIMGA

*Olamdan ketmaslik uchun benishon,
Do'stlarim shuhrat deb behuda chopdim.
Zerikdim qiynaldim lek topmadim shon,
Hayotning mazmunin sizlardan topdim.*

*Suyansam tog'imsiz yuk ortsam norim,
Do'stlarim shuhratim siz bilan yakkash.
Quvonchim, qayg'umda yonimda borim.
Men keldim bir muddat bo'lay deb dilkash.*

CHORIQ VA CHAKMON

*Necha yillar birga yashadik inoq,
Ey, yirtiq chorig'im eski chakmonim.
Saxiy va mard edim g'urbatdan yiroq,
Cho'ntakda paysa yo'q, sog' edi jonim.*

*Barchaga barobar, yelkani tutib,
Og'irin yengillab boraverardim.
Ertangi kunimdan umidlar kutib,
Bir burda nonimni bo'laverardim.*

*Bandadan bo'ldimi yoki xudodan,
Martabam oshdi-yu, davlat ziyoda.*

*Amaldor bo'lgandek xuddi azaldan,
El oralab, yurmay qo'ydim piyoda.*

*Qovoqlar osildi, shunga mos qorin,
Atrofimda barcha girdi kapalak.
Imo qilsam bo'ldi, to'kadi borin,
Men esa simu zar, to'pladim xalak.*

*O'ylabman, olamda boylik hukmron,
Jonimni egovlar har lahza g'anim.
Davlatim bo'lmadi sog'likka qo'rg'on
Turfa xil dardlardan zorlanar tanim.*

*Farzandlar birovga yelkasin tutmas
Holimni so'ramay, «ber» derlar, afsus.
Ularga boshdanoq mol dunyo emas
Mehr va mehnatni bermabman essiz.*

*Chorig'im, chakmonim men sizga aytsam
Egninga kiyardim kulsa ham, gumroh
Xotirjam, sog' yurgan kunlarga qaytsam
Dunyoning molidan kechar edim, oh.*

USTOZIM

*Ko'z ochib dunyoga kelganim palla,
Beshigim ustida xazin bir nola.
Sehri, gullar ochgan ko'ngil bog'imda,
Murabbiy avvali, onam va alla.*

*Tilim chiqib biyron, chopib yurgan dam.
Ilk bora, chug'urlab savollar bersam*

*Yelkasiga olib, tanitib olam,
Katta yo'lga qo'ygan, ustozim otam.*

*Oddiy Alifbodan to osmon qadar,
Boshimga ilmni jo qilgan, kamtar.
Ustoz muallimdan olganman, ta'lim,
Qancha ta'zim qilsam kamdek ko'rinar.*

*Bilmagan narsamni, o'rgatdi doim,
Ham yoshu, ham qari, dehqon va olim.
Umr yo'llarimda neni anglasam,
Anglatgan har biri ustoz muallim.*

*Ko'plardan o'rganib, o'rgatdim o'zim,
Kimga foyda bersa, hunarim, so'zim.
Shogirdman deyolsa g'ururdan o'tib,
Bosh egib unga ham qilaman tazim.*

BERKINMACHOQ

*Ayro tushdi, dil bilan iymon,
Qiynaliblar ketdi-ku, bu jon.
Berkinmashoq, bolalik o'rtoq,
Kela qolgin qilmasdan mushtoq.
Tik boqolmay hatto ko'zimga,
Berkinishga joy yo'q o'zimga.
Berkinmashoq, bolalik o'rtoq,
Meni yashir, o'zimdanda shu choq.*

QABRISTONDA

*Sukunat hukmron ushbu makonda.
Bu erda eslanar o'tgan zamonda,
Mung'ayib turadi bunda qabrlar,
Tiriklardan so'rab, duo sabrlar.*

*Qachondir dunyoga sig'magan ne zot,
Ajalning qo'lida mag'lub, hamda mot.
Surgan davronlarin qoldirib qayda,
Xoki tuprok bo'lgan, ikki gaz joyda.*

*Yechingiz, bu erda g'urur to'nini,
So'nggi qo'nim shunda, hayot qonuni.
Tuproqqa o'tiring, bo'lib xokisor,
Yig'lab ham olingiz, hech kim qilmas or.*

*Qotgan diydalar ham yumshaydi bir oz,
G'arazdan, zulmdan dil bo'lur xalos.
Zora, shunda ketar kibru havolar,
Qalblarga jo bo'lur ezgu navolar.*

*Insonni insonga hurmati oshar,
Tirikning diydorin ko'rmoqqa shoshar.
Barham topar shunda kin-u adovat,
Ezgulik axtargan topar halovat.*



O'KINCH

*Shaharga o'qish deb keldi-yu yigit,
Badavlat bevaga uylanib oldi.
Tug'ilgan qishloq ham bo'ldi-yu unut,
Molu davlatiga bog'lanib qoldi.*

*Esiga kelmadi qavmu qarindosh,
Yillar shu zaylda o'tdi-yu ketdi.
Yo'liga termulib, ko'zlarida yosh
Ona ham intiqib dunyodan o'tdi.*

*Or qildi, onani kelmadi ko'mib,
Do'st topmay, farzandsiz umr o'tkazdi.
Yashadi ayshini joyiga qo'yib,
Xasta bo'lgach xotin uydan ketkazdi.*

*Shu kundan ortiga ketdi-yu ishi,
So'ngsiz iztirobda boshin qashladi.
Beg'ubor bolalik yodiga tushib.
Oyog'i qishlog'i tomon boshladi.*

*«Kim qoldi, qandayin kutarkan axir!
Biror qarindoshni ko'rmagandi teng.
Haydab solmasmi deb xadik havotir,
Qishloq odamlarin ko'ngillari keng.*

*Kel dedi, haydamay bag'riga bosib.
Amaki, tog'asi qildilar mehmon.
Bir lagan yalpizli somsaga qo'shib
Sumalakdan tatib ko'rgani zamon.*

*Insoniy qadrini topgandek bo'lib,
Achchiq haqiqatni angladi shu on.
Umri saroblarda o'tganin bilib
Bo'g'ziga dard kelib, yig'ladi chunon.*

HASAD

*Amalda siljisam, hamkasbim bo'lib,
G'ijinib, tagimga suvlar quyasan.
Yangi ulov olsam, do'stga aylanib
Ayri tillar bilan g'iybat qilasan.*

*Tilla olib bersam, gar xotinimga,
Yanga bo'lib akam, ukam qayraysan.
Biror hashamatli imorat solsam,
Qo'shnimga aylanib, chaqib yayraysan.*

*Sendan qutulishga yo'q biror iloj,
Insonning qoniga singib bitgansan
Omadning qo'shnisi, oh, razil, hasad.
Ne ne aziz boshni, uzib ketgansan.*

*Necha bor ko'ksimni changallab qolib,
Dastingdan tortsam ham ko'p marta ozor.
Sen borsan, qilmishim fikrlab olib,
O'zligimni anglab turaman xushyor.*



UMR ZAVOLI

*Qarshingda shishada turar jilvagar.
Tiniq suv, go'yoki poklik timsoli.
Ich deydi, o'ziga chorlab xiyllagar
Necha taqdirlarning bo'lgan zavoli.*

*Bir qultum ichsang gar, boshqasan, qara
Ortidan yana ham, ichging keladi,
So'ng esa barchaga bo'lib masxara
Mushtlashib, loylarga kechging keladi.*

*Ertasi ko'chaga chiqmoq uyat, or,
Barcha qilgilikni ag'darib unga.
Ming bora tavbalar qilasan takror,
La'natlar o'qiysan «u» chiqqan kunga.*

*Sal o'tib qarshingda turadi, shisha,
Tavba tazzarular ortda qoladi.
Yutoqib ichasan topib hamshisha,
Shayton o'tdan olib, o'tga soladi.*

*Do'stlar yuz o'girgan, arazdadir yor,
Bolalar ko'chada eshitar tahqir.
Aqlinga suyanib fikr qil hushyor,
Umring yonginangdan o'tmoqda axir.*



TAROZI

*Shohda-yu gadoda, barchada borsan,
Kimgadir g'arazlik, kimgadir orsan.
Shunchalar qudratli kuchdirsan nahot,
Dastingdan dod dedi ne-ne odamzot.*

*Sulaymon qo'lida qilding adolat,
Chingizning qo'lida bo'lding jaholat.
Xudoga arz qildi dastingdan Xayyom,
Sozlashga urindi, Mir Alisher ham.*

*Etak bilan yopib bo'lmas qilmishing,
Ozni ko'p, ko'pni oz qilib turishing.
Senga kor qilmasdan biror nasihat,
Senda sinib ketdi qancha haqiqat.*

*O'lchash kerak derlar bo'lguncha rozi,
Ne uchun bunchalar buzuq tarozi.
Sababi ayondir, ishin asoslab,
Har kim yasab olur o'ziga moslab.*

*Arzimas naf uchun yo'qotar iymon.
Ko'ngil tarozusi buzilgan inson.
Yurt obod, xalq ozod bo'ladi beshak,
Adolat yo'lida posangi bo'lsak.*



IBRAT

*Oftobda isinib olgani bir oz,
Kovagidan chiqdi, hovliga ilon.
Uyida dushmani ko'rgandek bexos,
G'azabga to'lishib chopdi u tomon,
Otada belkurak, o'g'lida ketmon.*

*Yo'l -yo'lakay berar, ota aqllar,
«Tushda ko'rsang deydilar bu ganj.
Dono xalqdan qolgan naqllar,
O'ngda ko'rsang ur, boshini yanch,
Odamlarga keltirmasin, ranj».*

*Shahd ila qasd qilib uni joniga,
Ko'ziga qon to'lib. ura boshladi.
Oqibat g'arq etib qora qoniga,
Burda burda qilib, sochib tashladi.
Bu ham unga kam deb, yoqib tashladi.*

*Kelmagan omad-u, to'lmagan ro'zgor,
Kimgadir tugilgan mushlari uchun.
Fursat etganidan bo'lib baxtiyor,
Dushmanga qanchalar ko'rsatib kuchin,
Isodan olishdi Musoning o'chin.*

*Olam to'fonidan qochib mavjudot,
Yig'ilgan chog'ida juftini topib.
Nuhning kemasida topganda najot,
Kalamush g'ajigan teshikni yopib,
Qutqarib qolgandi, o'zini otib.*

*«Qaysi mahluqotni qilay mukofat,
Tanla» deb so'ragan, Nuh o'sha zamon.
«Menga ma'qul dedi, faqat odamzod».
Qaldirg'och tilini cho'qigani on,
Dushman timsoliga aylandi ilon.*

*Qissadan hissa shu, yaxshilikni qil,
Daryoga solginu, bo'lma ta'magir.
Nafsing aralashsa ezgulikmas, bil,
Yaxshilik ko'rgan ham, bo'lar damongir
Ilonning qismati, bizga ibratdir*

SHAYTON VA SHOGIRD

*Faqat insondadir topqir zakovat,
Yo'ldan urib turar shaytoniy ovoz.
Moziydan keladi qadim rivoyat,
Bir kuni shogirdin sinadi ustoz.*

*«To'rt tuxum qoldirdim, senga ey bo'tam
Bilsang gar, bizlarga, bu kechki taom.
Qaytib kelgunimcha sabr qil bir dam
So'ngra birgalikda ko'ramiz baham».*

*Bola-da, shogirdning qorni ochqadi,.
Bir dona tuxumni tutdi u shamga.
Boshqacha pishirish yo'lin topmadi,
Chala pishdi, edi, o'xshadi kamga.*

*Bor-e, deb qo'l siltab borini shu on,
Shamni shulasida pishirib edi.
Ustoz qaytsa tuxumlardan yo'q nishon,
«Ey bo'tam, bu ne ish, qilganing dedi».*

*«Och qolib bo'lgandi ko'nglim behuzur,
Shayton yo'ldan urdi qilmadim toqat.
Qilgan ishim uchun ming bora uzr,
Bariga sababchi shayton kasofat».*

*Yoqa ushlab, burchakdan chiqdi-yu shayton,
Dedi, insonlarga ko'p qildim zug'um.
Ey inson, shogirding gapirdi yolg'on
Endi ko'rdim shamda pishganin tuxum.*

AYOL ZOTI

*Xabar keltirdilar ayolga mudhish,
Bolasi anhorga cho'kib o'lganmish.
Onaning faryodi ko'klarga etdi.
Dod solib yugurib anhorga ketdi.*

*O'g'lini izlashar tumonat odam,
Ko'ylagi shu erda, ana, do'ppi ham.
Ayol nola qilar, «mengina o'lay,
Sensiz bu hayotni, endi ne qilay».*

*Shu damda, maykachan, do'ppisiz xandon,
U keldi daladan qirg'oqqa tomon.
«Sinash uchun xabar bergandim, ona,
Men cho'kmadim suvda, shundaman mana».*

*G'azabga keltirib bola qilmishi,
O'g'lin ura ketdi, tinmay qarg'ishi.
«Meni shuncha o'tda kuydirding ey go'l.
Bundan ko'ra cho'kib-cho'kibgina o'l».*

*Ko'rib xayron qoldim falak ishini,
Ona, silamadi bola boshini.
Xursand bo'lmay, mindi jahl otiga,
Tushunib bo'lmadi, ayol zotiga.*

QIZIM MOHINURGA

*Saxiy kuz o'zini ko'z-ko'zlagan dam,
Anvoyi ranglarga cho'milgan olam.
Bugun, g'ururim ham quvonchga hamdam,
Shodlikdan ko'zimga kelaverar nam.*

*Qizim, ko'zlaringda porlar tabassum,
Kelinlik libosi yarashmish biram.
Nilufar gulidek pokiza masum,
Baxtingni kulgani rost bo'lsin bolam.*

*Atirgul bargidan yozib poyondoz
Qaynona qaynotang ochmoqda bag'rin
Baxtning olqishiga jo'r bo'ladi soz,
Yoningda mard o'g'lon, baxsh etgan qalbin.*

*Borgan dargohingda tomirlar otib,
Murodingga etgin qizginam erkam.
Alla ayt tunlari beshik tebratib
Baxtingni butlasin shirin nevaram*



NEVARAMGA

*Bobo deb chopqillar jajji bolajon,
Mag'izi shirin der mevasidan ham.
O'g'ilga chimrilgan qoshlar ham hayron,
Tabassum yoyilar uni ko'rgan dam.*

*U erda shirinlik bo'lar deb har on,
Cho'ntakni titkilar bo'lib bir olam.
Tilin chuchukligi o'zi bir doston,
O'ziga, yarashar arazlagan dam.*

*Ko'zimning qarog'i, tillari biyron,
Sen. Vatan tiragi jonim nevaram.
O'sib ungin bo'lg'in mard o'g'lon,
Bobongni duosi hamrohing har dam.*

QIZLARIM

*Har biringiz ko'zim qarog'i,
Sizga bo'lgan mehrim bir olam.
Sizsiz yonmas qalbim chirog'i,
Chehrangizda, siyrati onam*

*Chug'urchug'lab, o'pib erkalab,
Achom achom qilgan yuzlarim.
Yo'rgagidan, bag'rimda o'ynab,
Bo'yga etib qolgan qizlarim.*

*Gullarimsiz, hayot bog'imda
Ko'z qarog'da o'stirgan aziz.
Bugun esa, uchirma bo'lib,
O'zga uyda makon qurgansiz.*

*Kelmay ket der, bolam sen uyli,
To'ydirmasdan turib mehriga.
Onangiz ham sizlardek mungli,
Qolmang deydi ota qahriga.*

*Qizga ota bo'lmoqlik og'ir,
Yurak to'la bo'lsa ham mehr,
Noilojman, tergayman axir,
Yolgondakam, qilaman qahr.*

*Ko'zim quvnar ko'rib baxtingiz,
G'amlaringiz boshimdagi qor.
Doim baland bo'lsin taxtingiz,
Duo qilgum sizlarni ming bor.*

FERMER UKAM SAYDIRAHIMGA

*Ota kasbin qilsa xor bo'lmas inson,
Sen dehqon o'g'lisan, tomiringda bor.
Dalada tug'ilding beshiging shiypon,
Belanchak bo'lgandi, arqonli qanor,
Ko'z ochib ko'rganing bo'lgan paxtazor.*

*Bu hur zamongacha neni ko'rmading,
Hali qish tugamay boshlangan zahmat.
Paxtaga qul bo'lib, rosa terlading,
Mehnatga yarasha aytmasdan rahmat,
Kosangni oqartmay qilishdi tuhmat.*

*Bugun sen fermersan yerni egasi,
Mustaqil Vatanda senga zo'r ishonch.*

*Har qancha ishlasang porloq ertasi,
Sen rizqni sochasan, davlatga tayanch,
Mehnating o'zingga keltirar quvonch.*

*Xursandman bugdoyga to'libdi uying,
Paxtangdan ro'zg'orga baraka to'lsin.
Bir paytlar otga ham etmasdi puling.
Olgan ulovlaring, o'ntaga etsin.,
Yangi uy quribsan, muborak bo'lsin.*

YANGI YIL

*Deraza qirovdan, naqshinkor bezak,
Yangi yil, mo'jiza tilaksan beshak.
Kelasan har yili umid etaklab,
Olamni beg'ubor oqlika belab.*

*Dasturxon bezaydi har bir xonadon,
Yaxshi niyat qilar kelar deb mehmon.
Bayramlar ichida gashti bo'lakcha,
Uylarning to'rida, go'zallik archa.*

*Dunyoda yo'qligin bilsak ham aniq.,
Boladek Qorbobo kutamiz intiq.
Sovga salomlar-u, ajib ertaklar,
Bolalik domiga mudom yetaklar.*

*Hayratga soladi charxning bu ishi,
Bir yilga kamaydi umrning qishi.
Orzularga Hamroz, yashab o'tamiz,
Sog'inib baribir seni kutamiz.*

*Ezgu tilaklarsiz umr o'tmaydi.
So'nggi nafasgacha umid ketmaydi*

TO'RTLIKLAR

*Derlarki qorani qilib bo'lmas oq,
Bo'lsa ham bu, inson qo'lidan kelmas.
Qora soch va soqol taqdiriga boq,
Ollohni qudrati, oqargan mutloq.*

* * *

*Beshikdan tushgandan to qabr qadar,
Ilm izlamoqlik mo'minga farzdir.
Umr yo'llarida qo'ygan har qadam,
Senga o'rgatganlar oldida qarzdir.*

* * *

*Falak aylanadi mening tegramda,
Olamni markazi men turgan joyda.
Kim isbot qiladi aksini ayting,
Aniq o'lchash uchun chegara qayda.*

* * *

*Kecha qilgan edim mushkuling oson,
G'iybatlar qilibsani, qilmasdan duo.
Seni qilmishingni bilar olomon,
Meni kimligim ham, barchaga ayon.*

* * *

*Do'st bo'lsang isbot qil, sevsang isbot qil,
Isbot talab qilib sayrayverar til.
Sadoqat vafoga asos ishonchdur,
Gar ishonch bo'lmasa isbotlar bir pul.*



BIR KUNI SO'ROG'IGA CHORLAYDI RAHMON

OTA VA O'G'ILLAR

*Farzandlar otani keldilar ko'mib,
Bir saf tizildilar eshikda qator
Ota o'tib ketdi qutuldi o'lib
Necha balolarga bo'lgan giriftor*

*Yursa qadamidan gursilardi yer,
Ortidan ergashib yurardi oftob.
Bir umr ishladi to'kih qaynoq ter,
O'g'lim orim derdi, kelinim mohtob.*

*Nogoh yotib qoldi so'nggi uch oyda
O'g'illar yugurdi bo'ldi qaratgan.
Biror bir tabibdan bo'lmagach foyda
Hukmiga tashladi, so'ngra yaratgan.*

*Katta o'g'illarning uylari bo'lak
Keliboq ketishar uzrini aytib.
Ota diydorga zor, huvillar yurak,
Shu bilan haftalab ko'rinmas qaytib.*

*Yemakdan qiynaldi kasalmand chog'da
Turishga mador yo'q, so'zlagani til.
Ko'zlari yo'lda yu, qo'li duoda!
«Rabbim, bolalarim rizqini but qil».*

*Ota o'tib ketdi, farzandlar qator,
Kelganlarga bir bir yelka tutishar.
Mehmonlar hurmati tik turib bedor
Birini kuzatib, birin kutishar.*

*Shu zayl bir hafta o'tdi, hech kimni,
Bezovta qilmadi «turmush tashvishi»
Yo'qotib dunyoda tengi yo'q zotni.
To'xtab ham qolmadi dunyoning ishi.*

*Maqtanib qo'yishar ora chorada
«Ortimdan kelmoqda kazo kazolar
Ko'rdingmi obro'yim baland naqadar,
«Men» deydi, «u» deydi va hakoza.*

*Eh, nodon o'g'illar, bu kibr qaydan?
Otangiz baqoga ketdi dil dog'lab,
O'tganni yod etib kelmasa odam,
Turmas ham edingiz, balki bel bog'lab.*

UMR

*Necha kuni qoldi falon akaning,
Borib xabar olib keksa holidan.
Yo'qlab kelar edi bir zotni otam,
Otamdan keyin ham, yashadi zotan*

*O'lchab berilgandir insonning umri
Unga qo'sholmaymiz biror soniya.
Bugun ko'rganimiz ertasiga yo'q
Dunyodan ketishga bordir bahona*

*Soppa sog' yurgandi, yiqildi kimdir
Yerdami, suvdami, taqdiri azal.
Bevaqt olib ketdi, deymiz-u, ammo
Kim aytar, vaqtida keldi, deb ajal.*

*Bugun atrofingda yoring do'stlaring
Seni ham, kutmoqda to'rt oyoqli ot
Ertaga ketar kun yodingda bo'lsin
Ezgu amalingdan topgaysan najot.*

FALSAFA

*Kutmagan baxtingdan bo'lib sen shodon,
Shodliginga to'lsa, jumla-yu jahon.
Bosgan izlaringda gullar ochilsa,
Yurakdan quvonchlar toshib ketgan on.*

*Quvonch-u shodlikka sherik qilsang gar,
Do'stu yaqinlaring tabrikka kelar.
Shodliging ko'payib uchar samoga,
Qomating tiklanib tog'larga etar.*

*G'amning bulutidan ko'zlaringda nam,
Bukilib kichrayib, ketdi gavgang ham.
Kelgan musibatga yo'qdek nihoya,
Ko'zlaringga anduh to'lib ketgan dam.*

*Do'stlar hamdard bo'lib, bo'linsa dardlar,
Har bitta taskindan to'kilib g'amlar.
Eng og'ir qayg'u ham chekinar ortga,
Va, qaytib keladi baxtiyor damlar.*

*Shodlik ham anduh ham yurar yonma yon,
Hamrohdir tug'ilgan chog'idan inson.
Ko'plashib g'amlarni ko'tarish mumkin,
Barcha musibatdan, yolg'izlik yomon.*

KO'ZGU

*Borib nafsing domiga, aldading chunon,
Aka, uka, do'stni, unsin deb tovon.
So'ng qilgan ishlaring oshkora bo'lib,
Ularga qarashga qiynaldi vijdon.*

*Mast bo'lib og'zingdan so'z chiqdi beor,
Qanchalar dillarga yetkazding ozor.
Ertasi bolangga tik boqolmading,
Bir chetga surildi nomus ila or.*

*Ko'ngil ko'chasida topilib ishrat,
Ba'zan qilganingda juftga xiyonat.
Ayoling aldading, to'qib, rivoyat,
Mung'ayib ovloqdan boqdi diyonat.*

*Mard bo'lsa dushman ham hurmatga loyiq,
Ortidan musht urding, bilmas deb Xoliq.
Iymoning chekinib ketdi uzlatga,
Barcha qilmishingni bildi xaloyiq.*

*Hozircha begona senga haqiqat,
Qazo etar bir kun, kelar oxirat.
Aytchi, odamlarga tik boqolmasang,
Xaqq nima deysan etganda fursat.*

*Ayro tushmay turib dilingdan iymon,
Tiling ham, diling ham, tursin bir tomon.
Ko'zlaring yashirmay ro'baro' kelgin,
Bir kun so'rog'iga chorlasa Rahmon.*

URUSHNING ENG SO'NGGI ASORATI

*Urush asorati bitmabdi hali,
Duogo'y otalar saflari siyrak.
Ular qarshisida o'yga tolaman,
Tinchlikning qadriga etmoqlik kerak.*

*Qirqinchi yillarda erkaklar bari,
Mudhish jangohlarga qarab ketishdi.
Ortidan ko'z tikib necha suluvlar,
Gulday yoshliklarin xazon etishdi.*

*Qancha kelinchaklar «qora xat» olib,
Tullarga aylanib qoldilar ojiz.
Necha go'zal qizlar topmay juftini,
Baxtlari ochilmay o'tdilar yolgiz.*

*Qancha norasida tug'ilmay asti,
O'g'lonlar belida o'qlarga uchdi.
Sonsiz mushfiq ona urushni qarg'ab,
Farzandsiz ne uylar chirog'i o'chdi.*

*Omon qolganidan bo'lgan farzandlar,
Qaridi, oltmishga, etmishga etdi.
Lanatlar bo'lsin shu, urush dastidan,
Mahallada chollar kamayib ketdi.*

KIMGA TO'Y, KIMGA AZA

*Kuzak shamolidan, yaproqlar uchar,
Qish qattik kelishdan, berib bir nishon.
Daraxtlar tepadan, barglarin to'kar,
Ham uzoq, ham sovuq, bo'lar qahraton.*

*Bu holdan o'tinchi xursand nihoyat,
Endi chaqqon bo'lar o'tin bozori.
Bu qishdan boy bo'lib chiqadi g'oyat,
To'y qilar, xudoga etibdi zori.*

*Buni ko'rib, chuqur qayg'uda cho'pon,
Bu yili qirlarda bo'lmadi xashak.
Qo'ylarin yarmi ham qolmaydi omon,
Qizga to'y qilishda qiynalar beshak.*

*Barchaga birdaydir aslida dunyo,
Hamma bilganicha, kunin ko'radi.
Bir holdan, kimgadir yaxshilik ato,
Kimgadir bir olam qayg'u keladi.*

*Suv kelsa simirib, kemiramiz tosh,
Bu chalkash olamda yashamoq taqdir.
Tegirmon toshiga etgunicha bosh,
Doimo kimga to'y, kimga azadir.*

MANGU BARHAYOTLIK DA'VO QILAR RUH

ABADIYAT QO'SHIG'I

*Hatto, vaqt hukmiga bo'yin bermagan,
Nomoddiy olamlar borin, bilaman.
Ruhimda bo'lsin deb, ko'nikma hosil,
Uni tushlarimda ko'rib turaman.*

*Men cheksiz hayotman borliq olamda,
Faqat, o'lchamlardan o'tib qolaman.
Ushbu yer atalmish moddiy dunyodan,
Boshqa olamlarga ketib qolaman*

*Jismni qoldirib uchta o'lchamga,
Ruhim ruyo bo'lib uchar osmonga.
Jannat va jahannam neligin ko'rib,
Nur bo'lib ketaman boshqa tomonga.*

*Beshinchi o'lchamda ne sir sinoat,
Hatto to'rtinchidan yo'q biror xabar,
Va lekin bilamiz ularning soni,
O'n sakkizta mingda sobit barqaror.*

*Mangu barhayotlik da'vo qilar ruh,
Men kezib yuraman, olamlar aro.
Necha bor yo'q bo'lib, paydo bo'lar yer,
Baridan bir o'tib qaytgunimcha to.*

CHARXI FALAK

*Oppoq tilaklarni qalbga jo qilib,
Tog'larga qor bo'lib o'zimni sochdim.
Quyoshning taftidan olib harorat,
Buloqdek jildirab yo'limni ochdim.*

*Maysa gullar kabi musaffo qalbim,
Jilg'adek tomchidan marjonlar taqdi.
So'ng esa yugurdim suronlar solib,
Vujudda xayqirgan daryolar oqdi.*

*Qay dilni yashnatdim, qay birin buzdim,
Bebosh tuyg'ular ham tashladi ketdi.
Kimdandir orqada, birovdan o'zdim,
Va sochlar oqarib ummonga eltdi.*

*Bugun ummonlarda turishim sokin,
Har zamon shuurda tug'ilar to'fon.
Bir kuni qor bo'lib tushgali sekin,
Nur bo'lib ketaman osmonga tomon.*



YARATGANGA IYMON

Mashhur olim Jak Iv Kusto dengiz bilan ummoni ajratib qo'yilganligini uzoq tadqiq qilganidan so'ng bu haqda qur'onda ochiq so'zlar bilan yozilganini o'qib iymon keltirdi va musulmon dinini qabul qildi.

*Bizlardan oldin ham tugal bor edi,
G'oyibdan yaralgan mukammal olam,
Va bizdan keyin ham bo'ladi beshak,
Nahot ko'rmayapsan ey ojiz odam.*

*Ko'kraginga urib yaratdim deysan,
Yo'qdan bor qilishlik yaratganga xos,
Kashfiyot, ixtiro va qonuniyatlar
Bor edi sal oldin ko'rolding xolos.*

*Tog'larni qoziqdek yerlarga qoqib,
Yulduzlar-la ko'kni bezab qo'ygan zot,
Ummonni dengizdan ajratib qo'yib
Kustoni iymonga keltirdi hayhot.*

*Undandir borliqni tadrij kamoli,
O'zidir yagona eng buyuk kashshof.
Toki kibring bo'lmay umring zavoli
Ey inson sen haqni qilg'il e'trirof!*



MISTIKA

*Oy to'lgan tunlarda, arvohlar izg'ir,
Jinlar bazm qiladi, doira chalib.
Hatto dengizlar ham junbushga kelur,
Odamlar tentirar adashib qolib.*

*Ko'zlarga ko'ringan ajina, arvoh,
Jonsiz tanasini mangu tark etgan,
Izn bermaguncha Qodiri Olloh,
Ruhdir, boshqa tanalarni axtarib ketgan.*

*Alloh sinov berar deyishar asli,
Ruhlar uchun balki bu bir sinoat,
Zaminga jon bo'lib qaytib turishi.
Yaratgan amriga qilib itoat.*

*Ruhi bor yashaydi tirik jonzodda.
Insonda hayvonda nabototda bor.
Ruhimiz bo'lgandir kitda yo otda.
Va yoki daraxtda, gulda beozor.*

*Sababin qidirdim, aniq bilmadim,
Ongimni qoplaydi mavhum hayollar,
Oy to'lgan tunlarda, qirlarga chiqib,
Meni, Bo'ri bo'lib, uvlagim kelar.*



INSON VA FARISHTA

*Bitta vujudadir, farishta, shayton,
Ezgulik, yovuzlik tomon bo'linar.
Shulardan tug'ilar savob va sitam,
Yuz yillik umri ham bir dam ko'rinar*

*Farishta shaytonga baqo mushtarak,
O'lim bor mavjudot, insonlarga xos
Ko'proq yashasak deb jonimiz halak,
Umid va qo'rquvlar shu orzuga mos.*

*Aslida yashashning qizig'i shunda,
Insonni umriga farishta xavas.
Nogoh uzilish bor kutmagan joyda,
Lutfi ham, jabri ham, ketadi besas.*

ABADIYLIK VA CHEKSIZLIK

*Olamni cheksiz der. Cheksiz olamda.
Millardlab jismlar o'rin talashar.
Meni jismim aro tirik jonzotlar,
Menga cheksizlikni da'vo qilishar.*

*Oллоhni qudrati, inson tanida,
Miliardlab jon yashar, ko'rmay fidoman.
Jismimda jo'sh urgan bu hayot uchun,
Qaysidir ma'noda men ham xudoman.*

*Million yil naridan nazar solsang ham,
Shu zamon, shu makon, shu vaqtda borman.
Million yil beridan qarab qo'ysang ham,
Ko'rasan, hamisha vaqtda takrorman.*

DUNYODA BORIDAN, DILIM XOTIRJAM

AYRILIQ

*Yana olisdasan, sevikli sirdosh,
Xijronlarga solib ketishing yomon.
Qaytib kelishingga bo'lsa ham ishonch,
Xadik xavotirlar qalbga hukmron.*

*Yurakda yig'ilib kelaverar dard,
Ozgina erk bersang, ko'tarib to'fon.
Sen esa uzoqda yagona hamdard,
Shunchalar bog'lanib qolarmi bu jon.*

*Yoningda bildirmay chopgan lahza vaqt,
Immillab qoladi sendan yiroqda.
Yettinchi osmonga chiqib ketgan baxt,
Mayus yerga tushar, o'ksib firoqda.*

*Visolga egizak ayriliq mudom,
Kun tun-la, almashib turmasa bekor.
Diydorning qadriga etmas edik ham,
Firoqda dunyo ham ko'rinmasa tor.*



ILOHIY TUYG'U

*Dillarga oromlar berguvchi ohang,
Nafis bir jilolar bunda mujassam.
Dil nozik torlari bo'lib hamohong,
Shu kuyning bag'riga singib ketolsam.*

*Sevgi kuyi bo'lsa yurakka hamdam.
Armon, xijronlarga to'la bo'lsa ham,
Fazoga ucholsam shu og'ang bilan,
Ilohiy muhabbat, qalbga kirgan dam.*

*Kimdir sevishini, xis qilsam har dam,
Kimnidir sog'inib, sevib yashasam.
Vasliga, etishsam, etishmasam ham,
Dunyoda boridan, dilim xotirjam.*

ARMON

*Dilim shishasiga tegdi-yu xijron,
Chil chil bo'lib sinib tushdi o'sha on.
Bu xijronning oxirida visol yo'q,
Ortiga qaytolmas chiqib ketgan o'q.*

*Men seni sog'indim, o buyuk armon,
Malaksan, men uchun qo'l etmas osmon.
Suzib ketayapsan parqut samoda,
Hayoling tark etmas, umid xumoda.*

*Ichimdan nimadir uzilgan. Bois,
Quvonchlar tark etgan ko'zlarim mayus,
Ishqning, qo'shiqlari endi sadosiz,
Dunyolar ma'nosiz, ranglar jilosiz,*

*Otash quchogingda sehr bor edi,
Xumor ko'zlaringda mehr bor edi.
Men seni sevgandim, yurakdan dildor,
Sening vidoingda o'zim gunohkor.*

AROSAT

*Mening kuyganimga dunyolar yondi,
Na sas bo'ldi sendan va na bir sado.
Xijron azobida dil faryodlandi,
Parvo xam qilmading, bo'lsamda ado.*

*Sen ketding, bog'imda hazonlar to'zg'ir,
Ayriliq izg'irin, qarog'im qirov.
Muzlagan qalbmida, bo'ronlar izg'ir,
Yo'qlikdan borliqni qilaberar ov.*

*Gar kelsang qalbmida gullar ochilib,
Muz erib, ko'zimda yashnardi bahor,
Har bitta g'unchadan bo'sa sochilib,
Labimga bosardim, vasling deb takror.*

*Sen ketding, yurakda chinqirar xijron,
So'nggi umiddan ham qilma deb judo.
Mavhumlik qiynaydi, arosat yomon,
Biror xabar ber deb, qildim iltijo.*



DOKA RO'MOL QURISHI

*Alam bilan chiqib ketdi yor,
Qaytmayman deb takror va takror.
Men ortidan jerkib, chaqirdim,
Aybin aytib unga baqirdim.*

*Ich ichimdan qaytishin kutdim,
G'urur ustun qayt deyolmadim.
O'zga kelgach o'ylanib qoldim,
So'ng bosh egib uyiga bordim.*

*Onasini ortidan menga,
Til chiqardi «ol mana senga».
Alam ketib u ham sog'ingan,
Erkalandi, menga talpingan.*

*Ko'pni ko'rgan dono qaynona
Yetaklatdi qizini mana.
Yolg'ondakam qavog'in uyib,
Yor boradi o'ylarga tolib.*

*Anglab etib dunyoning kamin,
Arazdan so'ng visolning ta'min,
Mehrlarga ko'mib tashladim,
Va yangitdan seva boshladim.*



BOYCHECHAK

*Qirlar qordan bo'lmasdan judo,
Qish zaptini bo'shatmay hali.
Qor ustida mo''jiza paydo,
Chechak chiqdi quyosh ko'rgali.*

*Darak berib keldi deb bahor,
Omon omon chiqdi boychechak.
Intiq dillar jilmaydi ilk bor,
U gul emas, umiddir beshak.*

NILUFAR

*Suv yuzida nafis bir chechak,
Yuz ochibdi go'zal maftunkor.
Barg ustidan jilmayar ma'sum,
Orzulardek tiniq beg'ubor.
Boqishlari muncha ham sirli,
Zavq beradi dilga bir olam.
Go'yo kular ajib sehrli
Intilganim suyukli sanam.*



ORZUGA AYB YO'Q

*Nogoh uchrar sarv qomat jonon,
Nigohida yulduz chaqnaydi.
Xotiniga taqqoslar shu on.
«Shunday ayol menda bo'lsaydi».*

*Bir hurliqo so'zladi asta,
Tillarida asal qaynaydi.
Havas bilan boqdi ohista,
«Oh, xotinim shunday bo'lsaydi»*

*Uyga kelsa shang'illar xotin,
Men yedimu siz qolib quruq,
Qovoq ochmay kelasiz qaydan.
Siz boshqani topgansiz aniq».*

*Erga bo'lmas javob muammo,
«Ne o'ylaysan xotin, bilmadim.
Ne jononlar ko'rsamda, ammo,
Faqat, faqat seni o'yladim».*

SOG'INCH

*Men seni sog'indim, qadamingga zor,
Ko'zlarim qoraydi tunlarim misol.
Qarog'im yopilmas, yuragim bedor,
Ko'ksinga bosh qo'yay, kel dardimni ol.*

*Telbalik aqlimdan aylabon judo,
Zulumot qa'rida adashdim uzoq.
Kelmasang hayotim nursiz benavo,
Turibman tubsizlik sarhadida toq.*

*Azizam men sensiz qiynalib ketdim,
Kel endi, kelaqol sitamlar nechun.
Tiz cho'kib yo'lingga, ol, deya tutdim,
Sadqa bo'lsin bir jon, bir visol uchun.*

OQQUSH SEVGISI

*Ikki juft bir birin sevgandi chunon,
Muhabbat osmonu hislar hukmron.
Fazolarga uchar charx urib shodon,
Suvda ham ko'kda ham doim yonma yon.
Vafo sadoqatdan kuylandi qo'shiq,
Havasla qaradi har qanday oshiq.
Qaydandir daydi o'q keldi nogohon,
Nar qush qulab tushdi oh urib nolon.
Modani dodini tinglamas hech kim,
Sevgisiz bir sayyod tushunmas balkim.
Uning chun sevgi bu, o'tkinchi bir his,
Bir yig'lab, esidan chiqarar izziz.
Ilohdan keladi asl muhabbat,
Yor uchun jon berar o'tkazmay fursat.
Sho'r g'avg'olar tushib moda boshiga,
Bazo'r etib o'lgan yori qoshiga.
Sensiz hayot yo'q deb yig'ladi chunon,
Azobdan ingradi yer hamda osmon.
Yo'l ko'rsat deb nola qilib xudoga,
Ruhlari uchgandek bo'ldi samoga.
Ko'kdan termulgancha yorga so'nggi bor,
Yerga otdi o'zin, dod solib zor zor.
Ularning jasadi o'ljaga qoldi,
Ozod bo'lgan ruhlar ko'kka yo'l oldi.*

*Bu ruhlar olami bilmaydi sarhad,
Abadiy visolda bunda muhabbat.*

KAKKU

*Vo-ajabo, hayrat bilan yoqa ushlab,
Kakku qushning qilig'iga, bo'ldik hayron.
Bildirmasdan tuxum qo'yib o'zga inga,
Inda turgan qushchalarni etdi vayron.*

*Kakku bir qush, u shundayin yaratilgan
O'rnak bo'lmas qiliqlari singlim ishon.
Nomusingni yerga urib, tinch oilani,
Buzib yurma, sen qush emas, axir inson*

*Muqaddas deb boshga qo'ydik ayollarni,
Ona dedik singil dedik, go'zal jonon.
Jannatni ham poyingizga etakladik.
Bu holatni ko'rish bizga emas oson.*

*Yengil elpi hayot zumda o'tar ketar,
Yosh o'tganda tavqi la'nat qo'ymas omon.
Alla ayting bola quchib beshiklarda,
Bir ro'zgorni obod qiling sadqa-i jon.*

NAVRO'Z

*Zulmatda, uzoqroq berkingan quyosh,
Ko'kida anchayin jilmayib qoldi.
Tunini kun bilan aylabon tengdosh,
Osmon ham bir qadar kengayib qoldi.*

*Qishning rutubatli sovuqlaridan,
Qutulgan keksa yosh ko'rib yalpizni,
Ko'zlariga surar, deyishar shodon,
«Shukr shu kunlarga etkazding bizni».*

*Yosh yalang yuzida, tabassum chaqnar,
Gul chiroy kashf etar lola yonoqlar
Sumalak solingan qozonin kavlar
Sho'x lapar aytishib huru malaklar*

*Tirik jon kuy chalib, justini chorlar,
Qushlar sevgi raqsini boshlagan bu dam
Yer taftidan erib qorlar qirovlar,
Dalasidan rizqin izlar dehqon ham.*

*Dalalar yam yashil, niyatlar oppoq,
Mo'l bo'lsin yurtimda nasiba rizq ro'z
Bodomlar shoxida gullardan bodroq,
Qadamlaring qutlug', xush kelding Navro'z.*

МУНДАРИЖА

ОЛАМ ИЧРА ОДАМ ЎЗИ БИР ОЛАМ

Дўстларимга	3
Чорик ва чакмон	3
Устозим	4
Беркинмачоқ	5
Қабристонда	6
Ўкинч	7
Ҳасад	8
Умр заволи	9
Тарози	10
Ибрат	11
Шайтон ва шогирд	12
Аёл зоти	13
Қизим Моҳинурга	14
Неварамга	15
Қизларим	15
Фермер укам Сайдирахимга	16
Янги йил	17
Тўртликлар	18

БИР КУНИ СЎРОҒИГА ЧОРЛАЙДИ РАҲМОН

Ота ва ўғиллар	19
Умр	20
Фалсафа	21
Кўзгу	22
Урушнинг энг сўнги асорати	23
Кимга тўй, кимга аза	24

МАНГУ БАРҲАЁТЛИК ДАЪВО ҚИЛАР РУҲ

Абадият қўшиғи	25
Чархи фалак	26
Яратганга иймон	27
Мистика	28
Инсон ва фаришта.....	29
Абадийлик ва чексизлик.....	29

ДУНЁДА БОРИДАН, ДИЛИМ ХОТИРЖАМ

Айрилиқ	30
Илоҳий туйғу	31
Армон	31
Аросат	32
Дока рўмол қуриши	33
Бойчечак	34
Нилуфар	34
Орзуга айб йўқ.....	35
Соғинч	35
Оққуш севгиси	36
Какку	37
Наврўз	37

MUNDARIJA

OLAM ICHRA ODAM O'ZI BIR OLAM

Do'stlaringa.....	41
Choriq va chakmon	41
Ustozim.....	42
Berkinmachoq.....	43
Qabristonda.....	44
O'kinch	45
Hasad	46
Umr zavoli.....	47
Tarozi	48
Ibrat	49
Shayton va shogird	50
Ayol zoti	51
Qizim Mohinurga	52
Nevaramga	53
Qizlarim.....	53
Fermer ukam Saydirahimga.....	54
Yangi yil.....	55
To'rtliklar	56

BIR KUNI SO'ROG'IGA CHORLAYDI RAHMON

Ota va o'g'illar	57
Umr	58
Falsafa	59
Ko'zgu	60
Urushning eng so'nggi asorati.....	61
Kimga to'y, kimga aza.....	62

MANGU BARHAYOTLIK DA'VO QILAR RUH

Abadiyat qo'shig'i.....	63
Charxi falak	64
Yaratganga iymon	65
Mistika	66
Inson va farishta.....	67
Abadiylik va cheksizlik.....	67

DUNYODA BORIDAN, DILIM XOTIRJAM

Ayriliq.....	68
Ilohiy tuyg'u.....	69
Armon.....	69
Arosat.....	70
Doka ro'mol qurishi.....	71
Boychechak	72
Nilufar.....	72
Orzuga ayb yo'q	73
Sog'inch	73
Oqqush sevgisi	74
Kakku.....	75
Navro'z.....	75